

Ilmiy tadqiqot natijasi xalqaro jurnalda e'lon qilindi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazining A.Anarbayev boshchiligidagi "Axsiket kompleks ekspeditsiyasi" va FA Seysmologiya instituti mutaxassislari Rossiya Fanlar akademiyasining Yer fizikasi instituti bilan hamkorlikda Axsiket yodgorligida olib borgan arxeoseysmik tadqiqotlar natijalarini aks ettirgan "Traces of Strong Earthquakes at Ahsiket, the Ancient Capital of the Fergana Valley" nomli maqolasi Springer Nature tizimida Research Highlights 2021 (yilning eng muhim tadqiqotlari) nominatsiyalar ro'yxatiga kiritildi. Maqola bilan quyidagi havola orqali tanishingiz mumkin: <https://link.springer.com/article/10.1134%2FS0742046321020044>.

